DUAL TA'LIM TIZIMI ORQALI TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

DOSHANOV JUMABAY
QARAO'ZAK 2-SON TEXNIKUMI
KASBIY TA'LIM BO'YICHA DIREKTOR O'RINBOSARI

imrconf.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etish va uni rivojlantirishning dolzarb masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotda dual ta'lim tizimining shakllanish jarayoni, uning an'anaviy ta'lim shakllaridan farqli jihatlari hamda ustun tomonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, dual ta'limning mazmun-mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. An'anaviy ta'lim sharoitida talabalar ko'pincha bo'sh vaqtlarida o'z mutaxassisligiga aloqador bo'lmagan sohalarda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsalar, dual ta'lim tizimi doirasida ular o'z kasbiy yo'nalishi bo'yicha nazariy bilimlarni egallash bilan birga real ishlab chiqarish muhitida amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dual ta'lim tizimi nazariya va amaliyotni o'zaro uyg'unlashtirish orqali zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi samarali ta'lim modeli sifatida baholanadi. Mazkur ta'lim shakli talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda ish beruvchilar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga, shuningdek, ta'lim muassasalarining ta'lim sifati va amaliy yo'naltirilganligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, dual ta'lim modeli, mehnat bozori talablari, nazariy tayyorgarlik, amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish tashkilotlari,*

kasbiy o‘qitish, malakaviy amaliyot, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, raqobatbardosh kadrlar.

Mehnat bozorida mavjud real ehtiyojlar, korxona va tashkilotlar faoliyati hamda iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o‘rinlari bilan ta’lim jarayonini uzviy bog‘lagan holda tashkil etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, kadrlarni faqat an’anaviy ta’lim tizimi asosida tayyorlash hozirgi mehnat bozori talablarini to‘liq qondira olmayapti. Shu sababli ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida dual ta’lim tizimining huquqiy asoslari 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonun bilan mustahkamlandi. Mazkur Qonunning 15-moddasida ta’lim olish shakllari belgilab berilgan bo‘lib, unda dual ta’lim mustaqil ta’lim shakli sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, Qonunning 17-moddasida dual ta’lim tushunchasiga aniq ta’rif berilib, unga ko‘ra dual ta’lim ta’lim oluvchilarning zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashiga qaratilgan bo‘lib, uning nazariy qismi ta’lim muassasasida, amaliy qismi esa bevosita ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi belgilangan.

Dual ta’lim tizimi an’anaviy ta’lim shakllariga nisbatan bir qator ustun jihatlarga ega. Jumladan, ta’lim jarayoni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashadi, ya’ni nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘zaro chambarchas bog‘lanadi. Talabalar o‘qish jarayonida real ishlab chiqarish sharoitida faoliyat olib borish orqali mustahkam amaliy tajriba orttiradilar hamda ish tajribasiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning mehnat bozoriga tez va samarali moslashuvini ta’minlaydi. Dual ta’lim asosida tayyorlangan bitiruvchilar mehnat bozori talablariga javob beradigan, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislar sifatida shakllanadi. Amaliyot ko‘rsatishicha, ko‘plab hollarda

imrconf.com

talabalar malakaviy amaliyotni o‘tagan korxona yoki tashkilotda doimiy ish bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, dual ta’lim tizimi ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, ta’lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Avvalgi davrlarda talabalar bo‘sh vaqtlarida o‘z mutaxassisligiga aloqador bo‘lmagan sohalarda daromad topgan bo‘lsalar, dual ta’lim sharoitida ular o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha bilim olish bilan birga ishlab, daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Shunday qilib, dual ta’lim tizimi zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan samarali ta’lim modeli bo‘lib, u nafaqat talabalar, balki ish beruvchilar hamda ta’lim muassasalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dual ta’lim tizimini samarali tashkil etish bir qator muhim vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Avvalo, korxona va tashkilotlardagi real ishlab chiqarish sharoitlari bilan ta’lim muassasalarida olib boriladigan o‘quv jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Bunda o‘quvchilarni bevosita mehnat faoliyatining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali ta’lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismi korxona va tashkilotlarda, nazariy hamda o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar esa ta’lim muassasalari negizida tashkil etiladi.

Dual ta’limni joriy etish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari va korxona (tashkilot)lar o‘rtasida samarali hamkorlik formatlari va o‘zaro aloqalarning zamonaviy modellarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tizim doirasida ta’lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirish orqali o‘quvchilarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ta’lim dasturlari ish beruvchilarning talablariga hamda ishlab chiqarishdagi texnologik

imrconf.com

yangilanishlarga mos ravishda muntazam ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonini va dual ta’lim dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, korxona va tashkilotlar bilan ta’lim muassasalari o‘rtasidagi tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini rivojlantirish, bitiruvchilarni baholash jarayonida ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish dual ta’lim tizimining muhim vazifalaridan sanaladi. Dual ta’lim, shuningdek, turli yoshdagi aholi qatlamlarining tegishli kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha zarur kvalifikatsiyalarni egallashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda dual ta’lim tizimini Germaniya tajribasi asosida izchil va tizimli rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6108-son Farmonida 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab professional ta’lim muassasalarida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish maqsadida dual ta’lim tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjat dual ta’limni rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-sonli “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom” tasdiqlandi. Ushbu hujjat dual ta’limni tashkil etish, amalga oshirish va baholash mexanizmlarini huquqiy jihatdan tartibga soldi.

Dual ta’lim tizimi 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etilib, dastlab kollej va texnikumlarda maktabgacha ta’lim, temir yo‘l hamda

imrconf.com

qurilish yo‘nalishlari bo‘yicha 2 mingdan ortiq o‘quvchi ushbu ta’lim shakliga qabul qilindi. Korxona va tashkilotlarning o‘z ehtiyojlari uchun malakali o‘rta bo‘g‘in mutaxassislar tayyorlashga bo‘lgan qiziqishi va talabi ortib borishi natijasida 2022/2023 o‘quv yilida dual ta’lim shaklida ta’lim olayotgan yoshlar soni 4,5 ming nafarga yetdi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish kabi yangi sohalarda ham dual ta’lim asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda respublika bo‘yicha 234 ta professional ta’lim muassasasida qariyb 13 ming nafar o‘quvchi dual ta’lim shaklida tahsil olmoqda. Ularning amaliy tayyorgarligini ta’minlash maqsadida korxona va tashkilotlarning 3144 nafar malakali mutaxassisi “ustoz” sifatida biriktirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalari bevosita ishlab chiqarish jarayonida shakllantirilmoqda. Ayni paytda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, maktabgacha ta’lim, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida dual ta’limning ulushi nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda 3600 dan ortiq korxona va tashkilotlar dual ta’lim jarayonida faol ishtirok etayotgani, shuningdek, 109 nafar pedagog kadrlarning Germaniya va Shveytsariya davlatlarida malaka oshirgani mazkur tizimni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [4].

Professional hamda malakali o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarni tayyorlash tizimini izchil rivojlantirish va takomillashtirish O‘zbekistonda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–200-son qarorida korxona va tashkilotlarning buyurtmalari asosida professional ta’lim muassasalarida dual ta’lim shaklida yil davomida o‘quvchilarni qabul qilish tizimini joriy etish

imrconf.com

belgilandi. Mazkur qaror dual ta’lim tizimini yanada kengaytirish va uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asos bo‘ldi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekistonda dual ta’lim professional ta’lim tizimida tez sur’atlar bilan joriy etilmoqda va o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Shu bilan birga, dunyo amaliyotida samarali ta’lim modellari qatoridan o‘rin olgan dual ta’lim tizimini oliy ta’lim muassasalarida ham keng qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Respublika miqyosida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur yo‘nalishdagi muhim hujjatlardan biridir. Ushbu Farmonning asosiy maqsadi uyushmagan yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, bu jarayonda ishtirok etayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda oliy ta’lim tizimida “Kasb egasi” dual ta’lim modeli asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Farmonga muvofiq, oliy ta’lim tizimida “Kasb egasi” dual ta’lim tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish hamda 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida 3- va 4-kurs talabalari uchun ushbu tizimni tatbiq etish belgilandi.

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti respublika oliy ta’lim muassasalari orasida ilk bor 2022/2023 o‘quv yilida dual ta’lim tizimi asosida tajriba-sinov mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘ydi. Mazkur jarayon doirasida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan 57 ta korxona bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi hamda 3-kursda tahsil olayotgan 864 nafar talaba dual ta’lim shaklida o‘qitildi. Talabalarning o‘quv rejasidagi mutaxassislik fanlarining o‘rtacha 50 foizi, ya’ni amaliy mashg‘ulotlar qismi bevosita korxonalarda tashkil etildi. Talabalarning ishlab chiqarish joylariga qatnovi uchun korxonalar tomonidan transport vositalari ajratildi, tushlik

imrconf.com

tashkil qilindi hamda ko‘plab korxonalarda talabalar bajargan ish hajmiga qarab oyiga 1 000 000 so‘mgacha ish haqi to‘lab berildi.

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab institutda 3- va 4-kursda tahsil olayotgan barcha talabalar “Kasb egasi” dual ta’lim tizimi asosida o‘qitishga to‘liq o‘tkazildi. Jumladan, 3-kursda tahsil olayotgan 805 nafar talaba 57 ta korxonada, 4-kursda tahsil olayotgan 854 nafar talaba esa 62 ta korxonada belgilangan grafik asosida ta’lim olmoqda. Bunda haftaning uch kuni institutda nazariy mashg‘ulotlar, qolgan uch kuni esa korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar olib borilmoqda. Talabalarning amaliy tayyorgarligini ta’minlash maqsadida korxonalarning tajribali va malakali mutaxassislari ularga rahbar sifatida biriktirilgan [5].

O‘zbekistonda dual ta’lim qisqa muddat ichida jadal sur’atlar bilan ta’lim tizimiga joriy etilmoqda. Shu munosabat bilan, uning qamrovini yanada kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’limning pedagogik sohalarida dual ta’limni tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishga bevosita hissa qo‘shadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–152-son Farmoniga muvofiq, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta’lim shaklini joriy etish belgilandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-sonli “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi. Nizomning 2-bobida dual ta’limning maqsadi va asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish,

imrconf.com

- Talabalarni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqarish yoki tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etish orqali real ish tajribasini o‘rgatish,
- Talabalarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini shakllantirish,
- Bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashini ta’minlash,
- Oliy ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida o‘qitish jarayonini uyg‘unlashtirish hamda yangi o‘qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning raqobatbardoshligini oshirish.

Shuningdek, dual ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mehnat bozori ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va ularning rivojlanish istiqbollariga mos ravishda malakali mutaxassislar tayyorlash,
- Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va takomillashtirish,
- Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim dasturlarining mazmuni va tuzilmasini mobillik nuqtai nazaridan moslashtirish,
- Talabalarga ishlab chiqarish sharoitida kasbiy tajriba orttirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratish,
- Talabalar uchun bir vaqtning o‘zida ta’lim olish va ishlab pul topish imkoniyatlarini tashkil etish.

Shunday qilib, dual ta’lim tizimi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va mehnat bozoriga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi samarali ta’lim shakli sifatida ta’lim tizimida o‘z o‘rnini mustahkamlayapti.

Barcha ilgari keltirilgan me’yoriy va amaliy chora-tadbirlar pedagogik sohada dual ta’limni joriy etishning poydevorini tashkil etadi. Shu munosabat bilan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ham kadrlarni dual ta’lim modeli asosida tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta’lim muassasalarida dual ta’lim shaklida o‘quv jarayonida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning ulushi quyidagi model bo‘yicha tashkil etilishi taklif etiladi:

imrconf.com

3 yillik oliy ta’lim dasturlari uchun:

- 1-bosqich: 80% nazariy, 20% amaliy
- 2-bosqich: 50% nazariy, 50% amaliy
- 3-bosqich: 30% nazariy, 70% amaliy

Mazkur modelning asosiy maqsadi dastlabki bosqichda talabalarga nazariy bilimlarni chuqur egallash imkoniyatini yaratish, keyingi bosqichlarda esa amaliy tajribani orttirishni ta’minlashdir.

4 yillik oliy ta’lim dasturlari uchun:

- 1-bosqich: 80% nazariy, 20% amaliy
- 2-bosqich: 40% nazariy, 60% amaliy
- 3-bosqich: 30% nazariy, 70% amaliy
- 4-bosqich: 20% nazariy, 80% amaliy

Ushbu model amaliyot ulushining bosqichma-bosqich oshishini aks ettiradi va talabalarni real ish sharoitlariga moslashuvini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Shu tariqa, dual ta’lim tizimi O‘zbekistonda oliy ta’lim sifatini oshirish, bitiruvchilarni ish beruvchilarning amaliy talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi bosqichma-bosqich muvozanat ta’lim jarayonini samarali va natijaviy qiladi. Shu sababli dual ta’lim tizimini amaliyotga tatbiq etish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun istiqbolli va strategik qadam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” GI O‘RQ- 637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152- son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/152/0773- son.

imrconf.com

3. Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2025 y., 09/25/14/0063-son.

4. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/events_in_uzbekistan/yil_oxirigacha_uzbekistonda_50_ming_kishi_dual_talim_tizimi_bilan_qamrab_olinadi.html.

5. https://uza.uz/uz/posts/malakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning-ahamiyati_541908?q=%2Fposts%2Fmalakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning- ahamiyati_541908).

6. Есенина Е.Ю. Дуальное обучение: возможности, ограничения, условия и практика использования / Е.Ю. Есенина // Профессиональное образование и рынок труда. – 2015. – № 8. – С. 16-1

imrconf.com